

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIJDON ERKINLIGINING TA'MINLANISHI**Jo'rayev Akrom**Termiz davlat universiteti,
Falsafa kafedrası o'qituvchisi**Ro'zimurodova Dilruza Nizomiddinovna**O'zbek filologiyasi fakulteti,
filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi 1-bosqich talabasi.ruzimurodavadilruza@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.19879908>

Annotatsiya. Mazkur ishda O'zbekiston Respublikasida vijdon erkinligining ta'minlanishi masalasi keng yoritiladi. Vijdon erkinligi har bir insonning istalgan dinga e'tiqod qilish yoki umuman e'tiqod qilmaslik huquqini anglatadi. Ushbu huquq mamlakatning asosiy qonuni — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ishda, shuningdek, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Unda diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi, ularning huquq va majburiyatlari, davlat bilan o'zaro munosabatlari ko'rsatib berilgan. Davlatning din ishlariga aralashmasligi, shu bilan birga qonun ustuvorligini ta'minlashi muhim tamoyil sifatida qayd etiladi.

Kalit so'zlar: vijdon erkinligi, din, e'tiqod, huquq, O'zbekiston Respublikasi, Konstitutsiya, diniy tashkilotlar, bag'rikenglik, davlat va din munosabati, inson huquqlari, erkinlik, jamiyat, qonun ustuvorligi

THE DEVELOPMENT OF FREEDOM OF CONSCIENCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. This article analyzes the content, essence, and interrelationship of the concepts of religion and free thought from a scientific and theoretical perspective. Religion has existed since ancient times and is interpreted as an important social institution that satisfies human spiritual needs, shapes moral values, and ensures social stability in society. The article highlights the doctrinal, ethical, and cultural functions of religion and provides a comprehensive analysis of its role in human cognition and social development. In addition, the concept of free thought is explained as intellectual freedom, independent thinking, critical approach, and openness to diverse perspectives. The article emphasizes the importance of free thought in the development of science, philosophy, and culture. The main characteristics of free thought, such as logical analysis, evidence-based reasoning, rejection of stereotypes, and aspiration for innovation, are also discussed. The relationship between religion and free thought is examined in a historical context, showing that at certain periods they developed in opposition, while at other times they evolved in harmony. Furthermore, the interconnection between these concepts is revealed, proving that they do not negate each other but rather act as complementary and mutually reinforcing factors. While religion guides individuals toward spiritual maturity, free thought ensures a conscious and critical approach in this process. In the context of modern society, maintaining a balance between religion and free thought is considered a pressing issue.

Keywords: freedom of conscience, religion, belief, law, Republic of Uzbekistan, Constitution, religious organizations, tolerance, relationship between state and religion, human rights, freedom.

Kirish: Vijdon erkinligi – ijtimoiy-falsafiy tushuncha; har kimning o‘z e‘tiqodiga ko‘ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me‘yorlarni buzmagani holda vijdoni buyurgani bo‘yicha yashash, ishlash imkoniyatiga ega. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi.

Siyosiy jihatdan vijdon erkinligiga demokratiya ko‘rinishlaridan biri sifatida qaraladi.

Yuridik nuqtai nazardan vijdon erkinligi insonning asosiy shaxsiy huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda u O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, „Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida“gi qonunda (1991-yil 14-iyunda qabul qilingan, 1998-yil 1-mayda yangi tahriri tasdiqlangan) nazarda tutilgan.

Konstitutsiyaga ko‘ra, „hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega“.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo‘yicha, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Vijdon erkinligi deganda insonning dinga oid tanlov va e‘tiqod erkinligi tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasida bu huquq qonun bilan kafolatlangan.

Vijdon erkinligiga

- Istalgan dinga e‘tiqod qilish yoki qilmaslik huquqi
- Dinini erkin tanlash va o‘zgartirish huquqi
- Ibodat qilish yoki ibodat qilmaslik erkinligi
- Diniy marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslik
- Diniy bilim olish va o‘rganish huquqi
- Diniy tashkilotlarni tuzish va ularga a‘zo bo‘lish (qonun doirasida)
- Hech kimning diniy e‘tiqodiga majburlanmaslik huquqi kiradi

Bu huquqlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan himoyalangan.

Vijdon erkinligi mavzusi ancha keng tushuncha bo‘lib, u faqat “din tanlash” emas, balki insonning ichki e‘tiqodi va dunyoqarashini erkin belgilash huquqini ham o‘z ichiga oladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18-moddasi va BMTning boshqa xalqaro hujjatlari bilan kafolatlangan. Garchi bu tushunchalar ko‘pincha yonma-yon ishlatilsa-da, vijdon erkinligi kengroq tushunchadir. U nafaqat dini, balki insonning falsafiy, axloqiy va siyosiy dunyoqarashini ham o‘z ichiga oladi. Inson o‘z vijdoniga zid keladigan ishlarni (masalan, harbiy xizmatdan vijdonan voz kechish kabi holatlarda) qilmaslik huquqini ham nazarda tutishi mumkin

chet elliklarda ham vijdon erkinligi bor — bu huquq faqat O‘zbekistonga emas, deyarli barcha demokratik davlatlarga tegishli.

Diniy bag‘rikenglik (diniy tolerantlik) – bu turli din vakillarining bir jamiyatda tinch va hamjihat yashashi, bir-birlarining e‘tiqodlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishidir.

Bag‘rikeng jamiyatda diniy e‘tiqodlar jamiyatning ma‘naviy-axloqiy asoslaridan biri sifatida qaraladi va u xalqni birlashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda azaldan turli millat va din vakillari do‘stona yashab kelgan, “bag‘rikenglik” xalqimizning tarixiy an‘analaridan biridir. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, bundan buyon ham O‘zbekistonda “millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, har bir fuqaroning vijdon erkinligi ta‘minlanishi; barcha diniy konfessiyalar erkin faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratilishi; millatlar va konfessiyalar o‘rtasida totuvlik va hamjihatlik siyosati izchil davom ettirilishi” davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘ladi. Ayollar va erkaklarning teng huquqliligi. Gender tenglik, ya‘ni ayollar va erkaklarning teng huquqliligi, O‘zbekiston Konstitutsiyasida va milliy qonunchilikda kafolatlangan fundamental prinsipdir.

Konstitutsiyaning yangi tahrirdagi 58-moddasida aniq qayd etilgan: “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi." Shuningdek, Konstitutsiyaning 18-moddasi barcha fuqarolarni jinsidan qat'i nazar teng deb e'lon qiladi va jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligini bildiradi. Demak, huquq va imkoniyatlar nuqtai nazaridan ayol va erkak fuqarolar tengdir, ularning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki teng asoslarda ta'minlanadi

Xulosa: Vijdon erkinligi har bir insonning eng muhim huquqlaridan biri bo'lib, u shaxsning ichki e'tiqodi, diniy qarashi va dunyoqarashini erkin tanlash imkonini beradi. Bu huquq insonni hech qanday majburlovsiz yashashga, o'z e'tiqodiga ko'ra qaror qabul qilishga undaydi va uning shaxsiy erkinligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida vijdon erkinligi davlat tomonidan qonuniy asosda kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroning diniy e'tiqodi hurmat qilinishi, hech kimning din tanlashiga aralashmaslik tamoyili belgilab qo'yilgan. Bu esa jamiyatda adolat va tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Vijdon erkinligi nafaqat diniy tanlov erkinligi, balki bag'rikenglik va o'zaro hurmat madaniyatini ham shakllantiradi. Turli din vakillarining bir jamiyatda tinch yashashi, o'z e'tiqodini erkin amalga oshirishi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Bu esa davlat rivoji va xalq farovonligida muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, vijdon erkinligi jamiyatda ekstremizm va majburlashga qarshi muhim himoya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Chunki inson erkin bo'lsa, u o'z qarashini ongli ravishda tanlaydi va boshqalarning e'tiqodiga hurmat bilan qaraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinliklari to'g'risida" gi qonuni, Qonun hujjatlari to'plami, <https://lex.uz/docs/-5491534>.
2. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, <https://constitution.uz/oz>.
3. www.lex.uz/
4. gov.uz/
5. regulation.uz